

**DONOLAR
BISOTIDAN**

DONOLAR BISOTIDAN

Arzon tosh sindirsa zarkosani gar, tosh narxi oshmaydi, pastka tushmas zar.

Shayx Sa'diy

Ustoz otamdek ulug'.

Shayx Sa'diy

“Men qo’limdan kelganicha nodonlar suhbatidan qochishga, johillardan uzoqlashish yo’lini ochisha intildim”.

Shayx Sa'diy

Xo’ja Hofiz Muhammad o’z ishlab topgan mablag’ining bir qismini tahsilga, ikkinchi qismini xayr ehsonga sarflagani uchun ham el duosini olib butun dunyo tarixida ulug’ shoир sifatida nom qoldirdi. El-yurt duosi bilan baraka topib ko’kardi. Hofizni tarbiyalagan, mashhur qilgan xalq uning muhlislari edi. Chunki xalqning tanqidi uni tarbiyalagan edi. Hofiz Devoniy forsiy Qur’ondir.

Qosim Anvor

“Men Hofiz nimagaki erishgan bo’lsam, hammasini erta tongda turish, sihat-salomatlikka intilish va Qur’on davlatidan topdim”.

Xoja Hofiz Muhammad

O’z nafsga kim bo’lsa amir, uldir mard, hech kimga bo’lmas asr. O’tmak sira mag’lubni tepib mardlik emas. Tutsa qo’lidan zabunni uldir mard.

Pahlavon Mahmud

Ustasiga farqi yo’q.

Pahlavon Mahmud

Uch yuz ko’hi kofni kelida tuymoq, dil qonidan bermoq, falakka bo’yoq yoinki, bir asr zindonda yotmoq, nodon suhbatidan ko’ra yaxshiroq.

Pahlavon Mahmud

Mavlono Haffofiy jami ilmlar va fanlar sohasida shunday miqyosga egaki, agar barcha kitob va risolalami daryoga tashlasalar va olamda biror ilmdan asar qolmasa, u barcha ilmlarni hayotga qaytara olishga qodir.

Mirzo Ulug’bek

Odamni aziz qilgan minbar emas. Balki minbarni aziz qilgan odamdir.

Xoja Axror Valiy

Ajdodingning shuhratiga suyanma. O'zingga o'zing shuhrat top.

Amir Ismoil Soniy

Kimda kim qarindoshlaridan o'ziga obro' e'tibor axtarsa va o'lган ajdodlari bilan faxrlansa, o'sha kishining o'zi o'lik va ajdodlari tirik hisoblanadi.

Yunon donishmandi

Men bilmoq uchun o'rgandim. Ular bilinmoq uchun.

Mahmud Kamol

Ta'bni bekorga o'tkazmanglar. Uni mashq qildirish kerak. Dangasalik ta'bning bo'shashiga sabab bo'ladi va zehnni o'tmaslashtiradi.

Ubaydullaxon

Xalqni meni yaxshi ko'rishining asosiy sababi, mening xalqqa bo'lган farzandlik muhabbatim. Mening xalqni yaxshi ko'rishim xalqning menga onalik muhabbati.

Shoir Berdaq

Shoir uchun eng qiyini odamlarning qalbiga yo'l topish. Yomonlikka nafrat, yaxshilikka quvonch hislarini uyg'ota bilish.

Xalq donishmandligi

Men mo'jizaga ishonmaganimda she'r yozmagan bo'lar edim. Axir she'riyat ham yutgan bitgani mo'jizada.

Mirtemir

Odam baxtga erishdim deganda, yashashning qizig'i qolmaydi. Baxtga erishishning tuyg'usi bilan yashashning o'zi baxt.

Mirtemir

Sabr qil, oldinda shunday bir cho'qqi borki, unga faqat yuki yengillargina chiqa oladilar.

Xalq donishmandligi

Jo'vonmardlikning alomatlari: "birovning omonatiga xiyonat qilmaslik, birovning ishi tushib kelganda xojatini chiqarish, qilgan yaxshilikni minnat qilmaslik, do'stlikni hech narsaga almashmaslik, birovning sirini boshqalarga oshkor qilmaslik, mardlik, oliy himmatlilik".

Xalq donishmandligi

Kishiga tole kulib boqsa, o'g'ri uning uchun posbonga aylanadi. Dushman esa mehribon do'stga.

Xalq donishmandligi

Qo'lingdan kelguncha yaxshilik qil va qilgan yaxshilingning unut.

Luqmoni Hakim

Odamlar dushmanga og'izlaridan yo'l beradilar. U esa aqlarini o'g'irlab ketadi.

Xalq donishmandligi

Men aytgan so'zimni qaytarib olganimdan ko'ra, aytmagan so'zimni og'izdan chiqarmaslikka harakat qilaman.

Xalq donishmandligi

Men o'z foydasini ko'zlab aytgan so'zi zarar bergen va o'zini halok qilgan odamga hayron qolaman.

Xalq donishmandligi

Og'zimdan chiqmagan so'zim qulimdir. Aytganim esa xojam.

Xalq donishmandligi

Men aytmagan so'zimdan hech vaqt pushaymon bo'limganman. Aytganimdan esa juda tez-tez pushaymon bo'laman.

Xalq donishmandligi

Indamaslik be'mani suhbatlardan ko'ra yaxshiroqdir. Inson har narsadan ko'ra ko'proq o'z tili tufayli baloga yo'liqadi.

Xalq donishmandligi

Inson uch narsaga intiladi. Yaxshi yashash, odamlar orasida yuksak mavqeiga ega bo'lish, savob amallarini bajarish.

Xalq donishmandligi

“Halol mehnat bilan davlat to’plash, qo’lga kiritilgan davlatni saqlay bilish, isrofga yo’l qo’ymaslik, davlatini o’zi, oilasi va aka-ukalari uchun xarjlash, mumkin qadar o’zini ziyonli ishlardan tiyish”.

Xalq donishmandligi

Abu Nasr Farobiy nayni yunon safaridan qaytishda olib kelgan ekan. U cho’li iroq, ushshoq, peshraviy diyor kuylarini ijod qilganligi haqida ma’lumotlar mavjud.

Xalq donishmandligi

Hayot varaqlari kishi amallarining sahifalaridir. Unga eng yaxshi ishlargina yozib qoldiriladi.

Farobiy

Kishi o’zining oliy himmati bilan azizdir. Mard shunday kishiki, gapirmasdan turib qilmoqchi bo’lgan ishini ado qiladi. Nomard kishi gapirib turib ham ado qilmaydi.

Xalq donishmandligi

Ikki narsa borki ular bir-biridan yaxshidir. Hunar bilimdan yaxshi, ish esa so’zdan afzaldir.

Mo’bad

Jahonda ikki narsaning barcha narsalardan afzalligi ta’kidlangan:

1. Xursandchilik.
2. Beozorlik.

Xurshid

“Boriga qanoat qilish yetolmagan narsalarga intilmaslik, birovning qo’lidagi narsaga ta’ma bilan qaramaslik xursandchilikka olib keladi”

Buzurgmehr

Maqsad sari eltuvchi yo’l donolar maslahati bilan ish qilish o’z vatanida bo’lish, odil bo’lish, sabrlilik, qaysarlik qilmaslik, foydasidan voshqalarni ham bahramand qilish, kamtarinlik.

Yunon donishmandi

Yaxshi yashash sirlari: salomat bo'lish, xotirjam yashash, yaxshi nom qoldirish abadiy yashashdir degan prinsipga amal qilib o'z faoliyatini amalgaloshirish.

Buzurgmehr

"Agar har kishini hayotning o'zi mulla qilmasa, hech bir dono unga aql o'rgatish uchun zahmat chekmasin. Zahmati behuda ketadi".

Anushervoni Odil

"Har kishining bilimi bo'lsayu, unga loyiq aqli bo'lmasa, bu ilmning unga hech qanday foydasi bo'lmaydi."

Anushervoni Odil

Agar o'z siringning ochilishini xohlamasang, birovning sirini ham fosh qilma.

Xalq donishmadligi

Siringni dushman bilmasin desang, do'stingga ham aytma.

Xalq donishmandligi

Agar odamlarning sevimlisi bo'lishni istasang, ulardan hech narsani ayama.

Anushervoni Odil

Kechirilmas gunohlar: mamlakatga qasd qilganlar, millatning ayollariga ko'z olaytirganlar, davlat sirlarini fosh qilganlar, dili boshqa tili boshqalar.

Xalq donishmandligi

"Har ishni avval chuqur o'y lab keyin hukm chiqarish", "Har ishni yo'lga soladigan yoki quvvatini qaytara oladigan chora tadbirlarni ko'rish zarur".

Xalq donishmandligi

So'rab olgan odam olgan narsasiga nisbatan ko'proq yo'qotadi. Haqiqiy marhamatli kishi so'ramasdan beradi.

Xalq donishmandligi

Yolg'on so'zlagan odam xor va be'obro' bo'ladi. Or-nomusini ko'z qorachigiday saqlagan, jamiyatda oliy mavqeini ishg'ol qilish uchun hamisha jon kuydiradigan o'g'il yaxshi o'gildir.

Shoh Xisrav

Aqlli odam yovuzlikdan qochadi. Men dushmanlarga tezroq aql kirishini xohlayman.

Shoh Xisrav

Kerilish va o'zini katta tutish quyidagi illatlarni keltirib chiqaradi:

Mensimaslik - xalq nafratiga yo'liqtiradi; Odamlarni taftish va tadqiq qilib, o'zi kasb-hunarga ega bo'lmaslik; Odamlarga dashnom berish; O'qishdan or qilib ilm-adabdan bebehra qolish; Jamoada o'zini barchadan ustun va dono tutish; Dushman orttirish va obro'yini to'kish, manmanlik tufayli chegaradan chiqish, baland amalga intilish natijasida xor-u zor bo'lism, o'z martabasidan ham ajralib qolish; Odamlarning haq-huquqlarini hurmat qilmaslik; Bemorlardan hol so'ramaslik; Odamlarga xavf solish, ularni masxara qilish natijasida beqadr bo'lism; Maslahatsiz ish tutish natijasida xijolat va nadomat chekish; Odamlar meni ulug' deb biladi deb o'ylash va gumonda bo'lism; Fozil ba komil kishilarga qulog solmay haqorat ko'zi bilan qarash natijasida el nazdidan qolish.

Xalq donishmandligi

Boriga qanoat qilish, yetolmaydigan narsalarga intilmaslik, birovning qo'lidagi narsalarga ta'ma bilan qaramaslik xursandchilikka olib keladi.

Buzurgmehr

Uch narsadan saqlangan odam martabaga erishadi: Yolg'on so'zlamaslik, u xor va beobro' bo'lmaydi. Zero, kimki yolg'on so'zlasa el nazdida beburddir.

2. Boshlig'inining huzurida uni tarifu tavsif qilmaslik. 3. G'iybatdan yiroq bo'lism. (Xalq donishmandligi)

Odamlar yemoq uchun yashasa, men yashash uchun yeyman.

Arastu

Zanglagan temirni ming ishlov berib ko'zgudek sayqallab boqib bo'lmaydi. Qora ko'ngillarga o'git foydasiz. Toshga temir mixni qoqib bo'lmaydi.

Luqmoni Hakim

Nodonlik belgisi: "Birov gapini tugatmasdan turib burun gapga aralashgan kishidan ko'ra ortiqroq o'z nodonligini oshkora qiladigan odam bo'lmaydi."

Xalq donishmandligi

Hunar o'rganinglar oltin, kumush safarda xatarli. Hunar qaynar buloq. Tuganmas davlatdir. Hunarning o'zi davlatdir. Hunarsiz odam esa hamisha mashaqqat chekadi, tilanchilik qiladi.

Xalq donishmandligi

Eng ashaddiy mushamning ikki kifting orasida joy olgan nafsingdir. Nafs degan narsaga qancha iltifot qilsang adovatini shuncha oshiradi.

Xalq donishmandligi

Vazifangdan so'zing baland bo'lmasin.

Umar ibn Abdulaziz

“Iskandarning talablari: “qozidan men seni bu vazifaga tayin qilish bilan o'z jonimni, o'z nomusimni o'z jasoratimni ham topshirdim. Bu vazifani sen o'z joning va qo'ling bilan saqlagin”. Oshpaziga esa “memimg gavdam sening qo'lingga topshirilgan. Uning ustiga o'z joning barobar g'amxo'rlik qil”. Mirzasiga esa “Sen mening aqlim ustidan ish ko'rasan, yozayotgan narsalaringda meni sdaqla”

Iskandar

“Chidam boshga kulfat tushganda, botirlik kurashda, do'stlk unga hojat tushganda bilinadi.”

Luqmoni Hakim

Go'zal xulq atvoring, odobing bilan uni ya'ni dushmaningni uyaltir.

Shayx Sa'diy

Ey og'ul, odamlar so'zga ustamonliklari bilan maqtansalar, sen sukuting bilan maqtangin, har narsaning dalili bor. Aqlning dalili fikr, fikrning dalili sukutdir.

Luqmoni Hakim

Olamda ezgulik qilishga eng sazovor odam onang va undan keyin otang va boshqalar.

Iskandar Zulqarnayn

Do'stlardanku ko'p foyda ko'raman, lekin dushmanlarimdan undanda ko'p manfaat topaman. Nainki, chunki mening yomon fe'llimni do'stlar manfaat

yuzasidan yashiradilar va men uni bilmay qolaman. Dushmanlar esa dushmanlik jihatidan bu fe'limni mening yuzimga soladilar va men undan qutilishga harakat qilaman.

Iskandar Zulqarnayn

Odamlarni o'zningdan uzoqashtirmaslikning chorasi chidam va muloyimlik, mushkul narsalarni chidam va muloyimlik bilan hal qilsa bo'ladi.

Fariddun

Hunar o'rgangin. Oltin, kumush safarda xatarli. Hunar qaynar buloq, tiganmas davlatdir. Hunarsiz odam esa hamisha mashaqqat chekadi, tilanchilik qiladi.

Xalq donishmandligi

Eng ashaddiy dushmaning ikki kifting orasiuda joy olgan nafsingdir.

Hadis

Nafs degan narsaga qancha iltifot qilsang adovatini shuncha oshiradi.

Donishmand

Vazifangdan so'izng baland bo'lmasin.

Umar ibn Abdulaziz

Chidam voshga kulfat tushganda, botirlik kurashda, do'stlik unga hojat tushganda bilinadi.

Luqmoni Hakim

Go'zal xulq atboring, odobing bilan dushmaningni uyaltir

Sa'diy

Ey og'il odamlar so'zga ustamonliklari bilan maqtansalar, sen sukuting bilan maqtanguin.

Luqmoni Hakim

Har narsaning dalili bor. Aqlning dalili fikr, fikrning dalili sukutdir

Luqmoni Hakim

Uzoq umr ko'rish siri: "hasad, kinchilikdan parhez qilish".

Gar desam umrimda g'amgin bo'lmayin,
Qilma hech kimga hasad ham qilma kin.

Luqmoni Hakim

"Iloji boricha o'zingga dushman orttirma. Biror kishi senga dushmanlik ko'rsata boshlasa, sen unga marhamat nazari bilan qara. Dilnavoz bo'l. shu bilan u kishi do'stlaring qatoridan joy oladi. Do'stlaringni shafqat va marhamating bilan sarafroz qil. Ular sendan ajralmay, samimiylar do'stlaring bo'lib qoladilar. Yolg'onchi kishidan vafo kutma. To'g'ri so'z ko'ngilga achchiq ba qattiq tegadi. Yaxshi odam yaxshilik qilganga yaxshilik qiladi. Bir yaxshilikka o'n hissa yaxshilik qaytaradi. Kimning asli pok, sof bo'lsa u odam elga manfaat yetkazadi."

Arastu

Ey mard odam, odamiylik qil. Oliy himmatli, tavozeli, ochiq yuzli, shirin so'zli bo'l.

Arastu

Eng odam odamlardan chaqimlik qilib, odamlarni bir-biriga dushman qilgan odamlardir. Ular eng yaramas, eng yomon kishilardir. Biringiz ikkinchingizning so'zingizni menga yetkazmang. Men salomat va rohatda bo'lган qalb bilan sizlarga yo'liqishni istayman.

Donishmand

Odsamlarga foyda yetkazgan kishi eng yaxshidor. Sahiy odam ehson qilganida shodlanadi. Pushaymon bo'lmaydi. Buzrugmehr

Sukut buyuk oqillikdir.

Luqmoni Hakim

Bog'bon yerni yumshatib, bir daraxt ko'chatini o'tkazib, uning atrofini xashashakdan, zararli, yovvoyi o'tlardan tozalab, kerak bo'lган vaqtida suv berib tursa, umuman yaxshi diqqat qilib tarbiyalasa, tez vaqtida daraxt voyaga yetadi. Unumli, serhosil bo'ladi. Bolani ham yoshligidan boshlab yaxshilab tarbiya qilinsa, bila o'ziga, ota-onasiga baxt-saodat keltiradi. Jamiyatning eng foydali a'zosi bo'lib yetishadi. Shuning uchun men yoshlkar tarbiyasiga ko'proq e'tibor beraman.

Luqmoni Hakim

Nasihat kor qilmaydigan odam uni shu yaramas xulqidan qaytarishga har qancha urinsak ham foydasiz bo'lib chiqadi. Tuzatishga ojiz bo'lamiz.

Luqmoni Hakim

"Ikki dushman butun yer yuziga sig'maydi, ammo ikki do'st bir qarich yerga ham sig'adi".

Arab donishmandi Asmaiyl

"Nodon va ezma kishi bilan suhbatdosh bo'lgan vaqtimda juda ham charchab holsizlanib qolaman".

Pahlavon Mahmud

"Himmat hamma narsan yuqori turadi. Adil binosi hech vaqt vayron bo'lmaydi." Himmatingni tut baland el oldida, himmatingla martabang bo'lgay baland.

Hakim Buqrot

"Yigit uchun: sharm-xayo va bahodirlik", Qarilar uchun sabr va ma'rifat yaxshi.

Donishmand

"Har kishining yoniga borib tilanishdan, ehtiyojini arz qilishdan ko'ra yo'qchilikdan olgan yaxshiroq".

Donishmand

Ayollarga faxsh, xiyonat nazari bilan boqma. Og'zingdan adab tarbiyaga zid bo'lgan so'zlarni chiqarma, xarom va shubhali narsalarni yema. Ichkilik ichma. Kishilarning molu-mulk jihozlarini o'g'irlab olma. Birovni urib jabr-jafo yetkazishdan saqlan. O'g'rilikka yurma. G'iybat. Ig'vo, hasadga oid so'zlarga quloq solma. Adab tarbiyatga so'zlarni eshitishdan qoch.

Donishmand

Shogirdlikka qabul qilish shartlari: Ko'z, til, quloq, oyoq tarbiyasiga e'tibor qaratish zarur.

Donishmand

Mening tafakkurim rivojida yo'l ko'rsatuvchi bo'lgan eng yaxshi pand-nasihatni bir qaroqchi og'zidan eshitganman.

Imom G'azzoliy

Kim sorikim tangrining ehsoni bor,
Tosh yorilib chiqmog'i imkoni bor

Imom G'azzoliy

Homtama dahrda ranjur erur.

Donishmand

Fikrli bilan fiksiz odam o'lik bilan tirik qanday farqlansa shunday farqlanadi.

Arastu

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1.Donolar suhbat. Hikoyat va rivoyatlar olami. O'zbekiston Nashriyoti.
Toshkent – 2019.

Luqmoni Hakim hikmatlari.